

**BUXORO DAVLATINING QO'SHNI MAMLAKATLAR BILAN
SAVDO – IQTISODIY VA ELCHILIK MUNOSABATLARI
(XVI – XIX ASRLAR)**

Yakubov Husniddin Muxitdinovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi.

husniddinyakubov10@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11669873>

Annotatsiya. Maqolada XVI – XIX asrlarda Buxoro davlatining qo‘shni mamlakatlar bilan savdo – iqtisodiy va elchilik munosabatlari yoritib berilgan. Shuningdek, Buxoro xonligining qo‘shni davlatlar munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi davlat rivojiga xizmat qilgani aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, iqtisodiy-siyosiy munosabatlar, diplomatiya, elchilik munosabatlari, savdogarlar.

**BUKHARA STATE WITH NEIGHBORING COUNTRIES
TRADE - ECONOMIC AND EMBASSY RELATIONS
(XVI - XIX CENTURIES)**

Abstract. The article describes the trade, economic and diplomatic relations of the Bukhara state with neighboring countries in the 16th - 19th centuries. Also, it is reflected that the relations of the Bukhara Khanate with the neighboring countries were well established and served the development of the state.

Key words: Bukhara, economic-political relations, diplomacy, embassy relations, merchants.

**БУХАРСКОЕ ГОСУДАРСТВО С СОСЕДНИМИ СТРАНАМИ
ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ПОСОЛЬСКИЕ ОТНОШЕНИЯ (XVI – XIX
ВЕКИ)**

Аннотация. В статье освещены торгово-экономические и дипломатические отношения Бухарского государства с соседними странами в XVI-XIX веках. Также отражено, что связи Бухарского ханства с соседними странами были хорошо налажены и служили развитию государства.

Ключевые слова: Бухара, экономико-политические отношения, дипломатия, посольские отношения, купечество.

Tarixdan ma'lumki davlatlarning rivojlanishi albatta tashqi diplomatik aloqalar va savdo munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda har qanday davlat ham o'z qobig'iga o'ralib taraqqiy etmagan. Shu o'rinda bunga istisno ravishda Buxoro xonligida Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumdorlari tomonidan bir qancha savdo va diplomatik munosabatlar amalga oshirilgan. Movarounnahrda Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan yillarda va ular hukumronlik qilgan yillarda qo'shni mamlakatlar bilan elchilik, savdo tijorat ishlarini olib borganlar. Xonlikning tashqi savdoni tashkil etishda elchilarning xizmati katta bo'lgan, chunki diplomatik aloqalarning yaqinligi savdo tijoratining rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasining hukumdor vakillari ham bir qancha qo‘shni davlatlar bilan tashqi savdoni tashkil etish tadbirlarini amalga oshirgan. Chunonchi Rossiya, Hindiston, Yorkent xonligi, qisman Usmonli turklar bilan savdo sotiq ishlarini olib borgan. Shu o‘rinda xonlik dargohida bir necha lavozimlar ham tashkil etilgan bo‘lib, ularga elchilik vazifalarini va elchilarni qabul qilish xizmatlari yuklatilgan. Ulardan biri – naqibdir, dargohdagi xondan keyingi muhim davlat amaldori bo‘lib, rasmiy qabul marosimlarida oliy hukumdorning chap tomonida birinchi bo‘lib joy olishi naqibning dargohdagi tutgan yuksak maqomidan dalolatdir. “Naqibning asosiy vazifasi mas’uliyatli hisoblanib elchilik vazifasini amalga oshirish yuklatilgan. Shu bilan birga harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushman harbiy imkoniyatlarini o‘rganish masalalarini ham bajargan. Naqiblarning muhim jihatlaridan biri shundaki, bu lavozimga asosan payg‘ambar avlodlari hisoblanmish sayyidlar xonadoniga mansub kishilar tayinlangan” [1]. Demak, bundan ko‘rinadiki xon dargohidagi bu kabi ma’suliyatli vazifa va ishlarni bajarish uchun xonning eng ishonchli kishilari tayinlangan.

Davlat ahamiyatiga molik mansablardan yana biri “dodxoh”dir. “Dargohga tushgan arzlarni qabul qilish, javobini berish hamda mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya qilish kabi yumush bilan birga, u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarni tashkil etish va hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish kabi tadbirlarni amalga oshirgan”. Bu lavozim mansabida ham ma’lum bo‘ladiki xonlikdagi diplomatik va savdo sotiqni tashkil etish kabi nozik masalalarni bajargan.

Dargohdagi yana bir muhim lavozimlardan biri bu “shig‘ovul”dir. “Bu mansabdagi kishilar ham chet el elchilarini qabul qilish bo‘yicha maxsus xizmat boshlig‘i bo‘lgan”. Demak xonlikning Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumronligi yillarida davlat dargohidagi bu lavozimlar tashqi elchilik munosabatlarni tashkil etish va xorij elchilarini qabul qilish kabi tadbirlarni bajarib kelgan. Bundan xulosa qilish mumkinki yuqoridagi kabi lavozimdagi shaxslarning xizmatlari xonlikdagi tashqi savdoning tashkil etilishi va qo‘shni davlatlar bilan elchilik munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilishida muhim ahamiyat kasb etganligidir. Endi Buxoro xonligining tashqi savdo tijorat va diplomatik aloqalari haqida so‘zlasak. Bunda Buxoro xonligiga yaqin bo‘lgan hududlardan biri, bu Usmonlilar davlatidir. Usmonlilar davlati bilan Buxoro xonligi davlati o‘rtasidagi munosabatlarning iliq bo‘lishida bir tomondan din birligi va qisman til yaqinligi ham rol o‘ynagan. Bu jarayon ikki davlatning yaqinlashuviga ijobiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmasdi.

Biroq Usmonlilar davlati bilan Shayboniylar davlati o‘rtasidagi diplomatik va savdo-tijorat munosabatlari haqidagi ma’lumot kam o‘rganilgan mavzulardan biridir, ammo Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchilik tarixi” kitobida kam bo‘lsada ma’lumot uchraydi. Manbada ta’kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II o‘rtasida Eron safaviylariga qarshi kurash to‘g‘risida shartnoma tuzilgan. 1515-yilda turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylar elchisi borgan. Sulton Salimning elchisi Muhammadbek esa o‘sha yili Buxoro xonligiga sultonning maktubini olib kelgan. Sulton o‘z maktubida Ubaydullaxonni «qizil boshlilar»ga qarshi kurashga chaqirgan [2]. Bunda Shayboniylar davlati tomonidan Usmonli turklar davlatiga elchi bo‘lib kim borganligi, qancha kishi hamrohlik qilganligi hamda Usmonli turklar tomonidan Shayboniylar davlatiga kim elchi bo‘lib kelganligi haqida ma’lumot keltirilmagan.

Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniyxondan keyin ham davom etgan.

Shayboniylar davlatini markazlashgan davlatga aylantirgan Abdullaxon II davrida ham elchilik munosabatlari qisman yo'lga qo'yilgan. Bu elchilik munosabatlari quyidagi ma'lumotlarda ham o'z tasdig'ini topadi. Binobarin Usmoniylar sultoni Navro'z Ahmadxonga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Navro'z Ahmadxonning Toshkentdagi qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turilgan. Turk askarlari Navro'z Ahmadxon tarafidan turib Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi janglarda qatnashganlar. Binobarin, usmonlilar sultonligi safaviylarga qarshi kurashda shayboniylar kuchidan foydalanibgina qolmay, Buxoro xonligida o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashganligidir. Bu ma'lumotda ham shuni bilish mumkinki, bunda ayniqsa Usmonlilar sultonligi Movarounnahrda markazlashgan davlat vujudga kelishini hohlamagan, binobarin bu vaqtga kelib markazlashgan Buxoro xonligiga Movarounnahr va Xurosonni Abdullaxon II o'z davlati tarkibiga birlashtirgandi. Shu bilan birga o'z siyosiy ta'sirini qo'shni davlatlarga o'tkazayotgan edi.

Boburiylar davlati Buxoro xonligining janubiy qo'shni davlati bo'lib, bu ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy munosabatlar qizg'in davom etib kelgan. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy diplomatik munosabatlar asosan XVI-asrning 70-yillaridan boshlab muntazam ravishda davom etib kelgan. Bu haqida Nizomiddinovning XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari kitobida diplomatik va iqtisodiy munosabatlar haqida keng mulohaza yoritilgan. 1572-yili Hindistonga Abdullaxonning birinchi elchisi Xo'ja Oltamish yuboriladi.

Keyingi ikkinchi elchilik ham Abdullaxon II tomonidan yuborilib bu safar Abduraxim boshchiligidagi elchilar yuboriladi. Keyingi elchilar esa 1579-yili Abdullaxon II saroyiga sunniy mazhabdagi Mirza Po'lat boshchiligida hind elchilari yuborilgan. Uzoq yillardan so'ng Akbarshoh Buxoroga elchi yuborishga qaror qiladi. 1597-yili 17-mayda Hindistondan Buxoroga Xo'ja Ashraf Naqshbandiy boshliq elchilar yo'lga chiqadi". Demak XVI-asrning ikkinchi yarmidan XVII-asrning boshlarigacha, Shayboniy hukmdor Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati o'rtasida olib borilgan elchilik a'loqalar muntazam ravishda davom etib turgan.

Bunda har ikki davlat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida manfaatdar bo'lganligini ko'rish mumkin. Keyingi elchiliklar esa Ashtarxoniylar sulolasi hukumronlik davri bilan bog'liqdir. Ashtarxoniylar hukumronlik qilgan davrda ham Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasida iliq diplomatik munosabatlar davom etgan. Ulardan – Hindistonga 1632-yili Vaqqos Hoji, 1633-yili Tarbiyatxon boshchiligida hind elchilari Balxgacha, uzoq vaqtdan so'ng Buxoro xonligidan Xo'ja Ahmad al-Husayniy 1661-yili 27-nayabr, undan so'ng esa Kuchakbek 1663-yili hind shohi qabulida bo'lganlar. Buxoro xonligida esa 1665-yili iyulda Mustafoxon Hofi elchiligi qabul qilingan. 1669-yili 11-may kuni Hindistonga Buxorodan Rustambiy boshchiligidagi elchilar kelgan, unga javoban 1670-yili may oyida Hindistondan Yakkatozxon elchiligi, so'ng 1671-yili Buxorodan Muhammad Sharif elchiligi Hindistonga, 1685-yili Buxoroga Zabardastxon, 1688-1989-yillari Nazarbiy Hindistonga, 1714-1715-yillari esa Sultonbiy elchiligi Hindistonga" kelgan [3]. Bu kabi oliy darajadagi elchilik munosabatlar esa, birinchi navbatda siyosiy, iqtisodiy savdo munosabatlarning manfaatlarini ko'zda tutganligini bilish mumkin. Endi Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati iqtisodiy (savdo) munosabatlari haqida so'z yuritsak. Unda asosan ikki o'rtadagi asosiy maxsulotlar: Hindistondan dorivorlar, har xil boyoqlar,

choy va Buxoro xonligidan esa quruq va ho‘l mevalar asosiy maxsulotlar hisoblanganligini keltirib o‘tish joiz. Olimlarning aniqlashicha

Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o‘rtasidagi savdo munosabatlarning asosan 3 xil asosiy shakli mavjud ekanligi e‘tirof etiladi. Xususiylar savdo.

Xonlikning maxsus vakillari vositachiligida olib boriladigan savdo.

Podshohlar o‘rtasidagi bir-birlariga tuhfa va hadiyalar yuborish yo‘li bilan mol ayirboshlash.

Xususiylar savdogarlar, asosan xalq extiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar maxsulotlari bilan savdo qilganlar. Bu savdo-sotiq ishlari quyidagi ma‘lumotlarda ham o‘z tasdig‘ini topgandir.

Ular XVI-XVIII asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda, Hindistondan Buxoro bozorlariga turli xil matolar, (jomavar, chire, gujorat,) lak va bo‘yoqlar keltirilgan, Buxorodan Hindistonga ho‘l va quruq mevalar, ot, tuya, ipak matolari, suqno, qunduz terisi, har xil chinnilar, zig‘irpoyadan to‘qilgan rus matosi va boshqalar keltirilgan.

3. Uchunchi shakldagi savdo esa xon, podshoh, yoki amirlar tomonidan uyushtirilgan. Bu shakldagi savdo sovg‘a-salom, hadiya tuhfa yuborish yo‘li bilan olib borilgan, bu esa Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o‘rtasidagi iqtisodiy savdo munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etganligini bilish mumkin. Ulardan Hindistonga kelgan Imomqulixon elchisi Abdurahimxo‘ja turli sovg‘a-salomlar bilan birga Jahongirga bir yirik la‘l tuhfa qilgan. Jahongir ham Abdurahimxo‘jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000, va 500 misqol og‘irlikdagi uchta oltin “kavkabi toli” hadiya etgan. Demak yuqorida keltirilgan tuhfalarda asosan qimmatbaho la‘l, olmos bilan almashinib turilganligini bilish mumkin. Yana bir elchilik munosabatlarda Abdulazizxon tomonidan hadiya qilib yuborgan qimmatli 40 ming rupiyalik la‘l evaziga, Avrangzeb o‘z elchisi Mustafaxonni esa Abdulazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar oltin suvi yuritilgan egar jabduq, jamdar quroli, qimmatbaho qilich, qalqon, o‘qdon, bir fil va turli matolar bilan jo‘natgan. Bu yo‘sindagi savdoda esa asosan qurollar, har xil matolar va xon uchun zarur bo‘lgan maxsulotlar bilan savdo qilishganini bilish mumkin. Xulosa o‘rnida Buxoro xonligi va Hindiston (Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida) o‘rtasida olib borilgan elchilik aloqalar va iqtisodiy munosabatlar bir-biriga chambarchas holda olib borilganligini bilish mumkin.

Buxoro xonligining boshqa qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy (savdo) va siyosiy (elchilik) munosabatlarda bo‘lganligiga tarix guvohdir. Bu mamlakatlardan biri Rossiyadir. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI-asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Buxoro xonligining oliy hukumdori Abdullaxon II va Rossiya podshosi Ivan Grozniy davrida ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Ivan Grozniy davri Rossiyaning mavqeyi kuchaygan davr hisoblanadi. Chunki Qozon xonligi, Hojitarxon xonligi, Volga bo‘ylari va g‘arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Buxoro xonligining Rossiya orqali Yevropa davlatlari bilan, Rossiya esa Buxoro xonligi orqali Hindiston bilan savdo qilish imkoniyatini vujudga keltirgan edi. Manbalarda takidlanishicha Abdullaxon II tomonidan 1557-1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo‘lganlar. Ular o‘z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo‘ylab erkin o‘tishlariga ijozat so‘raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko‘p o‘qdori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar [4]. Demak Buxoro xonligining XVI asrning ikkinchi yarmidagi Rossiya davlati bilan elchilik va savdo munosabatlari butun XVII asrda ham davom etgan. XVII

asrda Ashtarxoniylar (Joniylar) hukumronligi davridagi xon, Imomqulixonning faoliyati xarakterlidir. Chunonchi, Imomqulixon vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to‘qqiz marotaba elchilar yuborilgan. Shularning yettitasi bevosita, Astraxan, qolgan ikkitasi esa Sibir orqali yuborilgan. Demak Rossiya davlati bilan Ashtarxoniylar sulolasi o‘rtasida ham elchilik va savdo munosabatlar izchillik bilan davom ettirilgandir. Ma’lumot o‘rnida 1613-yili Imomqulixon rus davlatiga Navro‘zxo‘ja boshchiligidagi elchilarni yuboradi. Bu elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozon, Samara va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomonidan qabul qilinadi.

Ular shuningdek sovut, shunqor, mo‘yna va “xon extiyoji” uchun zarur bo‘lgan rus tovar maxsulotlarini sotib olish va xon mollari rus yerlarida bojsiz sotilishiga ijozat berilishini rus podshosidan so‘ragan va natijada ma’lum miqdorda imtiyozlar berilgan. 1619-yilda Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi va podsho Mixail Romanov qabulida bo‘ladi. Podsho Odambiy bilan birgalikda Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilarni yuboradi. I.Xoxlovni Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o‘z saroyidagi 23 nafar rus asirlarini ozod qiladi. I.Xoxlov 1620–1622-yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma’lumotlar to‘playdi. U qimmatli sovg‘alar bilan Moskvaga kuzatiladi.

Yozma manbalarga ko‘ra, XVI–XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan. 1583–1600-yillarda Moskvada 5 marta Buxoro elchilari, 2 marta Xiva elchilari bo‘lishgan. Bu misollar Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasida savdo-diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi. Yuqoridagi ma’lumotlardan ham anglashimiz mumkinki har ikki davlat o‘rtasida bojsiz savdoda Buxoro xonligi ham va Rossiya davlati ham juda manfaatdor bo‘lgan. Chunki Buxoro xonligining asosan ipak, paxta kabi maxsulotlariga, Rossiyaning sovut, shunqor, mo‘yna va qurol aslahalariga har ikki davlatning ichki bozorida talab bo‘lganligini bilish mumkin bo‘ladi.

Keyingi elchilik munosabatlarida ham asosan yuqoridagi ko‘rsatilgan tovar maxsulotlar bilan savdo aloqalari davom etganligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi elchilik aloqalariga to‘xtalsak: Buxorodan Chobak Valikov 1622-yilda, Hoji Otaqul 1633-yilda, Xazziyan (Kozziyan) 1640-yilda, Xo‘ja Ibrohim 1642-yilda, Mulla Farrux 1670-yilda, kabi elchilar Rossiya mamlakatiga yuboriladi. Bu kabi elchilik munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi Buxoro xonligi va Rossiya savdosini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishida muhim rol o‘ynaganini tushunish mumkin. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida Markaziy Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi. Bunda, birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, xususan, Hindistonda Buyuk Britaniya ta’sirining kuchayib borayotganligi sabab bo‘lgan.

XVIII asr oxiri–XIX asr boshlarida rus sarmoyasi Markaziy Osiyo bozorida yetakchi o‘rinni egalladi. Ingliz mollari Rossiya orqali olib kelinardi. Nijegorod yarmarkasida rus savdogarlaridan tashqari o‘zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan. XIX asr boshlarida Rossiya o‘zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi, ba’zi cheklashlar bekor qilindi. Endi ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo‘lishdi [5].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligining qo‘shni davlatlar bilan tashqi savdo va elchilik munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi davlat rivoji uchun muhim bo‘lgan.

REFERENCES

1. Yaqubov, F. M., et al. "METHODOLOGY OF SELECTION OF 10-12-YEAR-OLD PLAYERS AND ORGANIZATION OF TRAINING." *Modern Science and Research* 3.1 (2024): 1271-1279.
2. Якубов, Фазлиддин Мухитдинович. "Бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларида спорт тафаккури ва унинг услубларини яратиш орқали тафаккур тарзини такомиллаштириш йўллари." *Фан-Спортга* 4 (2019): 17-22.
3. Muxitdinovich, F. Y. "Synergetic effect-As an Innovative approach to the Development of the Way of Thinking of Physical Culture and Sports Specialists." *European Journal of Research and Reflections in Education Sciences* 8.12 (2020): 165-170.
4. Muqimov, Olim. "СПОРТНИНГ ЖАМИЯТДА ТУТГАН УРНИ ВА ИЖТИМОЙ-ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ." *Физическое воспитание, спорт и здоровье* 1 (2020).
5. Очилов, Ойбек. "СПОРТ ВА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎРНИ." *Академические исследования в современной науке* 2.16 (2023): 161-165.
6. Якубов, Ф. М., and Р. Т. Жабборова СР Казоқов. "10-12 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАНЛАШ ВА МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ." (2024).
7. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 561-569.
8. Ganieva M. et al. THE UNITY OF TECHNIQUE, TACTICS AND STRATEGY IN TABLE TENNIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1175-1183.
9. Usmonova S. H., Akmurodov M., Kazokov R. THE INFLUENCE OF TEMPERAMENT ON THE CHOICE OF SPORTS ACTIVITIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 63-70.
10. Umaraliyeva F. T., Kazoqov R. T. THE ROLE OF SPORTSWOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1124-1131.
11. Mustafayeva N. A., Kazoqov R. T. USING THE MAIN CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC SCHEDULE IN SOLVING ISSUES RELATED TO PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1115-1123.
12. Kazoqov R. T., Axatov L. K. SPORT TOMOSHASINING ESTETIKASI. – 2024.
13. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
14. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.
15. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.

16. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
17. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.
18. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
19. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
23. Казоқов Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
24. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
25. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
26. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
27. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН

- ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Казоқов Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ // GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р. КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили // *Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili*” ga bag'ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Bektorov O. Y. et al. MONITORING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS DURING THE TRAINING PROCESS // *Modern Science and Research*. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 342-352.
33. Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Казоқов Р. Т. и др. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR // *TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR*. – С. 1-237.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
36. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
39. Axatov L. K., Burliyev U. K., Kazoqov R. T. AESTHETICS OF SPORTS SPECTACLE // *Modern Science and Research*. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 19-28.
40. Kazoqov R., Akmuradov M. PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF JUDO // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 481-488.

41. Kazoqov R. T., Umaraliyeva F. T. DRAW A KINESICYCLOGRAM OF SHORT-DISTANCE RUNNING AND BUILD A TIMELINE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1201-1208.
42. Kazoqov R. T. et al. IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF SHORT-DISTANCE ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1077-1084.
43. Kazoqov R. T. et al. STARTING TECHNIQUE IN SHORT DISTANCE RUNNING //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1070-1076.
44. Xalmuxamedov R. et al. ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE CONDITIONS OF THE MIDDLE MOUNTAIN OF INDICATORS OF THE INTENSITY ZONES OF TRAINING TRAINING LOADS OF QUALIFIED BOXER WOMEN //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 473-483.
45. Shoyimardanov S. A., Bobomurodov A. E., Kazaqov R. T. FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS AND SKILLS IN STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 425-434.
46. Jumayev U. X. et al. ANALYSIS OF THE FINANCIAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN OFFICIAL DOCUMENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 1202-1209.
47. Ziyamuxamedova S. A., Kazaqov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 982-989.
48. Raxmatov B. S. et al. SHORT DISTANCE RUNNING TECHNIQUE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 990-1000.
49. Yugay L. P. et al. RECOVERY OF THE BODY OF SHORT-DISTANCE RUNNING ATHLETES DURING SPORTS TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 365-371.
50. Akbarov A. et al. ANTHROPOMETRIC-PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS AND RECOVERY OF THEIR BODY DURING TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 358-364.
51. Kim D. et al. PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE PARTICIPATION OF STUDENT ATHLETES IN THE SWEDISH TEAM AND THE SWEDISH TEAM IN THE UZBEKISTAN CHAMPIONSHIP IN HEIGHT ATHLETICS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 346-353.
52. Nurullayeva D. S. et al. ETHICAL PROBLEMS AND THEM IN THE FIELD OF NATURE SOLUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 480-486.
53. Kazaqov R. T., Djo'rabayev A. M. MEANS OF RECOVERY OF WORKING CAPACITY OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 902-911.
54. Kazoqov R. T., Djo'rabayev A. M. DEVELOPMENT OF CYBER SPORTS IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 893-901.

55. Yaqubov F. M. et al. METHODOLOGY OF SELECTION OF 10-12-YEAR-OLD PLAYERS AND ORGANIZATION OF TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1271-1279.
56. Казоқов Р. Т. ҚИСКА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА МАХСУС ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Fan-Sportga. – 2022. – №. 7. – С. 53-55.
57. Djo'rabayev A. M., Kazoqov R. T. O'ZBEKISTONDA KIBERSPORTNI RIVOJLANISHI. – 2024.
58. Baltayeva I. T. et al. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 709-718.
59. Baltayeva I. T. et al. CREATING AN INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 700-708.
60. Melziddinov R. A., Akramov B. N., Kazoqov R. T. THE RELATIONSHIP OF THE EFFICIENCY OF TECHNICAL-TACTICAL ACTIONS OF FOOTBALL PLAYERS WITH THE LEVEL OF PHYSICAL PREPARATION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 1153-165.
61. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.
62. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
63. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
64. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.